

KONTRAFAKT TOVARLAR IQTISODIYOT VA INSON

SALOMATLIGI UCHUN ZARARLI

Nomozov Abduvohid Abdurazzoq o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti

Tel: +99897 760 96 94

Telegramm: @abduvohid2714

Annotasiya:

Bugungi kunda butun dunyo muammosiga aylangan kalbaki va kontrafakt tovarlarning aylanmasi(oldi-sotdisi)ga qarshi kurashish kerakliligi hamda bunda jamoatchilik nazorati muhim rol o‘ynashi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Mualliflik huquqi, kontrafakt tovar, Xalqaro savdo palatasi, tovar belgisi, markirovka tizimi, raqamlı markirovka, imitasiya.

Rivojlangan davlatlarning ko‘p yillik tajribasiga qaraganimizda, ular sog‘lom raqobat muhitini yaratishga intilishgan. Bunda asosiy eъtibor tovarning sifatiga qaratiladi. Qisqacha aytadigan bo‘lsak, sog‘lom va erkin raqobat muhiti orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisi bozordan munosib joy egallaydi. Ammo sog‘lom raqobat muhitining turli mashaqqatlariga bardosh berishni hohlamasdan, nosog‘lom raqobat muhitini tanlagan holatda kontrafakt tovarlarni ishlab chiqargan va sotgan holda isteъmolchilar va iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazuvchilar afsuski, uchrab turmoqda. “ Kontrafakt ” fransuzcha so‘z bo‘lib,

“ Mualliflik huquqini buzish ” degan maъnoni anglatadi. U turli toifadagi shaxslarning intelektual mulk huquqlariga zarar yetkazgan holda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotga tegishli hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar bozorda yetakchi brendga ega bo‘lgan mahsulotlarning taniqli brendlari va logotiplarini o‘z mahsulotiga joylashtirish yoki shunga o‘xshash vaziyat orqali isteъmolchilarni o‘ziga ishontirishga urinadilar va aksariyat hollarda buning uddasidan chiqadilar ham.

Yurtimizda ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, isteъmolchilarning sog‘lig‘i va manfaatlarini himoya qilish, ichki bozorda sifatli mahsulotning bo‘lishini taъminlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagи “ Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida ”

va 2006 yil 20 iyulda “ Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi ”gi Qonunlar qabul qilingan. Ushbu qonunlarda tovar belgisidan yoki o‘zgartirib yuborish darajasida u bilan juda yaqin darajada o‘xhash bo‘lgan belgidan tovarlarda, ularning o‘rovlarida va etiketkalarida qonunga zid ravishda qo‘llanilganda ular kontrafakt bo‘ladi. Iste‘molchilarga bunday mahsulotlarni taklif etish qonun bilan qatiyan taqiqlanadi.

Afsuski, haridorlar har doim ham sotib olayotgan mahsulotlari nomining to‘g‘ri yozilishiga, mahsulot ishlab chiqaruvchining manzili va mahsulot tarkibi to‘g‘ri va to‘liq yozilganligiga e‘tibor bermaganliklarining ortidan aldanib qolganliklari bois sog‘lig‘iga zarar yetkazib qo‘yishadi.

Ko‘pincha kontrafakt mahsulotning sifati past bo‘lganligi sabab iste‘molchilar ishonchining pasayishiga olib keladi. Haridor albatta ishonchidan chiqqan mahsulotini ikkinchi marta qaytib olishni hohlamaydi. Bu esa nohalol “ tadbirkor ”ning boshqa turdagи kontrafakt mahsulot ishlab chiqarishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayon unga nisbatan kuchli darajadagi qonuniy chora ko‘rilmagunicha davom etaveradi.

Kontrafakt mahsulotlar joy tanlamaydi, ammo zamonga qarab ularning turi o‘zgarib boradi. Bu muammo esa barcha mamlakatlarning kontrafakt mahsulotlarga doimiy kurash olib borish kerakliligiga chorlaydi. Chunki kontrafakt mahsulotlarning oldi-sotdisi iqtisodiyotga jiddiy zarar keltirib, nohalol rvqobat natijasida tovarlari jahon bozorida munosib o‘rin egallagan yirik tadbirkorlarning tovar aylanmasi keskin tushib ketadi va davlatga soliq, ishchilarga oylik maosh to‘lash qobiliyatini astacyekin yo‘qotib boradi. Natijada passiv daromadga ega bo‘lgan kompaniyalar o‘zlarining ishchi o‘rinlarini qisqartirishga yoki butunlay bankrot deb eylon qilishiga olib keladi. Shundan so‘ng mamlakatda ishsizlik ortadi va davlat byudjetiga tushayotgan soliqlarning hajmi ham sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Xalqaro savdo palatasining tahliliy ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha kontrafakt mahsulotlar savdosi butun xalqaro mahsulotlar oldi-sotdisining 5-7 foizini tashkil etadi. Bu esa jahon iqtisodiyotiga kontrafakt mahsulotlarning yiliga tahminan 500 mlrd AQSH dollari qiymatida zarar keltiradi degani.

Kontrafakt mahsulotlar nafaqat iqtisodiyotga, balki inson salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Buni kontrafakt doi mahsulotlarining har yili dunyoda qariyb 1 mln insonning umriga zomin bo‘lishida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, kontrafakt dori mahsulotlarida zarur moddalar umuman bo‘lmagligi mumkin,

shuning uchun ham kasallik bilan og‘rigan bemorning ahvoli yaxshilanmasdan, balki kasallikni yengishga qarshi kurashuvchi moddalar ichilmaganligi sababli sog‘lig‘i xavf ostida qoladi.

Kontrafakt mahsulotlar bilan kurashishda raqamli markirovka tizimi alohida ahamiyatga ega. Raqamli markirovka bugungi kunda MDH mamlakatlarida ancha rivojlangan. Bu tizim juda ko‘plab afzalliklarga ega. Eng avvalo-bu tizim ichki bozorni kontrafakt mahsulotlardan tozalab, nosog‘lom raqobat muhitiga qarshi kurashish va soliq tushumlarini ortirish orqali davlat byudjeti tushumini oshirish hisoblanadi. Noqonuniy ishlab chiqarilgan va noqonuniy yo‘llar bilan bozorlarimizga kirib kelgan mahsulotlarga nisbatan soliq to‘lanmasdan qoladi.

Markirovka tizimi esa ishlab chiqaruvchi kompaniya yoki importchi mahsulotni ishlab chiqarishi yoki mamlakatga olib kirishidan tortib, uni isteъmolchi harid qilgunigacha bulgan doimiy zanjirni nazorat qilish imkonini yaratadi. Bu shuni anglatadiki, mahsulot ishlab chiqarilganidan keyin u qaysi omborda saqlanganligi, uni qaysi ulgurji savdo kompaniyasi harid qilgani va savdo rastasiga joylangunigacha bo‘lgan faoliyat nazorat ostida bo‘ladi. Mamlakatimizda bugungi kunda 3 guruhdagi mahsulotlar markirovkalanadi: Bular alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari. Eъtibor berib qaraydigan bo‘lsak yuqoridagi mahsulotlar aksiz markaga ega tovarlardir. Ushbu tovarlarning mamlakatimizga kontrafakt tovar sifatida olib kelish yuqori foizni tashkil etadi.

Ko‘pincha oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy kimyo, kosmetika va preparatlar imitasiya qilinadi. Ushbu mahsulotlarni qalbakiylashtirish va ulardan nusha ko‘chirish osondir. Kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish nafaqat haqiqiy ishlab chiqaruvchilvrning intelektual mulkka bo‘lgan huquqlarini buzadi, balki haridorlarning hayoti va sog‘lig‘iga ham yuqori darajada xavf soladi.

Kontrafakt tovarlarning ichki bozorda aylanuviga qarshi kurashish maqsadida har yili mamlakatimizda 15 fevraldan 15 martgacha “ Kontrafakt mahsulotsiz bir oy ” tadbiri o‘tkazilib kelinmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad butun mamlakat bo‘ylab kontrafakt mahsulotlar sotilishiga qarshi samarali kurashishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ichki bozorida kontrafakt mahsulotlar paydo bo‘lishining oldini olishga nafaqat tegishli davlat nazorati organlarining, balki jamoat nazoratining ham muhim vazifasi hisoblanadi. Shuni taъkidlash joizki, isteъmolchilar huquqlari har doim yetarli darajada himoyalanishi va inson omili daromad manbasiga aylanib qolmasligi lozim.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Shuni yodda tutishimiz lozimki, har barimiz istkъmolchi sifatida o‘z sog‘lig‘imiz va hayotimizni asrab, arzon va sifatsiz mahsulotlarga uchmasligimiz, kontrafakt mahsulotlardan ehtiyot bo‘lishimiz lozim. Chunki kontrafakt mahsulotlar cho‘ntagimizga qaysidir maъnoda foyda keltirsada, lekin sog‘lig‘imizga jiddiy zarar yetkazishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimqulov Q., Tovarlarni sertifikatlash jarayonlarini takomillashtirish. // jamiyat va boshqaruv jurnali. №4. Toshkent, DBA, 2019.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/counterfeit_consumer_goods.
3. <https://www.customs.uz>.
4. Karimqulov Q. “Kontrafakt tovarlar yo‘liga g‘ov bo‘lib”. Toshkent. 2019.